KATHERINE MANSFIELDNING "THE GARDEN PARTY" HIKOYASIDA IJTIMOIY TENGSIZLIKNING BADIIY IFODALANIShI

Ilmiy rahbar: Boltabaeva Ma'rifatxon Baxromjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
Email: boltabayevamarifat@gmail.com
+998942755577
Yunusov Muhammadyusuf
Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va dabiyoti yo'nalishi, K.XTA-AU22-guruh talabasi
Email:muhammadyusufyunusov321@gmail.com
Phone: +998913513501
ORSID: https://orcid.org/0009-0000-8294-3632

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi Zelandiya adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Katherine Mansfieldning "The Garden Party" hikoyasida ijtimoiy tengsizlik muammosining badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchi tomonidan yuqori va quyi ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tafovutlarning turmush tarzi, ijtimoiy mavqe, dunyoqarash va insoniy munosabatlar orqali yoritilishi o'rganiladi. Shuningdek, Sheridanlar oilasining farovon hayoti va ishchi oilasining og'ir turmush sharoiti o'rtasidagi qarama-qarshilikning asar kompozitsiyasidagi vazifasi ochib beriladi. Laura Sheridan obrazining ruhiy kechinmalari, uning oilaviy muhit ta'sirida shakllangan ijtimoiy qarashlari hamda kambag'al ishchining vafoti bilan bog'liq voqeadan keyingi ichki o'zgarishlari psixologik tahlil asosida yoritiladi. Hikoyadagi bog', ziyofat, shlyapa va o'lim motivining ramziy-semantik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual, psixologik va germenevtik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Tahlil natijasida Mansfield ijtimoiy tengsizlikni faqat moddiy tafovut sifatida emas, balki insonlar o'rtasidagi ma'naviy masofa, ijtimoiy begonalashuv va shaxsning axloqiy anglash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab hodisa sifatida tasvirlagani asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Katherine Mansfield, "The Garden Party", ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy tabaqalanish, modernizm, Laura Sheridan, ijtimoiy begonalashuv, psixologik tasvir, ramziylik, badiiy konflikt.*

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО НЕРАВЕНСТВА В РАССКАЗЕ КЭТРИН МЭНСФИЛД «THE GARDEN PARTY» («САДОВАЯ ВЕЧЕРИНКА»)

Аннотация: *В стате анализируется художественное изображение сотсиалной несправедливости в рассказе Катҳерине Мансфиелд «Тҳе Гарден Партй». Особое внимание уделяется противопоставлению обеспеченной семи Шеридан и рабочего класса, а также отражению сотсиалного неравенства в образе жизни, мировоззрении и межличностних отношениях персонажей. Исследуется психологическая еволютсия Лори Шеридан, её внутренний конфликт после известия о смерти рабочего и постепенное осознание сотсиалних противоречий окружаюшчего мира. Отделно рассматриваются символические функтсии сада, праздничного мероприятия, шляпи и мотива смерти. В исследовании применяются историко-литературний, сравнително-типологический, контекстуалний, психологический и герменевтический методи анализа. Обосновивается положение о том, что Катҳерине Мансфиелд изображает сотсиалное неравенство не толко как материалное различие между общественними группами, но и как духовную дистантсию, сотсиалное отчуждение и нравственную проблему личности.*

Ключевие слова: *Катҳерине Мансфиелд, «Тҳе Гарден Партй», сотсиалное неравенство, сотсиалная стратификатсия, модернизм, Лора Шеридан, сотсиалное отчуждение, психологическое изображение, символика, художественний конфликт.*

THE ARTISTIC REPRESENTATION OF SOCIAL INEQUALITY IN KATHERINE MANSFIELD'S SHORT STORY "THE GARDEN PARTY"

Abstrast: *This artisle examines the literary representation of sosial inequality in Katherine Mansfield's short story "The Garden Party". It explores the sontrast betveen the privileged Sheridan family and the vorking-slass sommunity, fosusing on differenses in lifestyle, sosial status, vorldviev and interpersonal relationships. Partisular attention is given to Laura Sheridan's psychologisal development, her internal sonflist folloving the nevs of a vorker's death, and her gradual avareness of the sosial divisions surrounding her. The artisle also investigates the symbolis funstions of the garden, the party, the hat and the motif of death. Historisal-literary, somparative-typologisal, sontextual, psychologisal and hermeneutis approaches are emploed. The analysis demonstrates that Mansfield presents sosial inequality not merely as a differense in material sonditions, but as a somplex phenomenon involving emotional distanse, sosial alienation and the individual's moral avareness.*

Keywords: *Katherine Mansfield, "The Garden Party", sosial inequality, sosial stratifisation, modernism, Laura Sheridan, sosial alienation, psychologisal representation, symbolism, literary sonflist.*

INTRODUSTION

XX asr ingliz adabiyotida inson va jamiyat munosabatlarini badiiy anglash, ijtimoiy tabaqalanish, shaxsning ma'naviy erkinligi va axloqiy tanlov masalalari muhim mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, modernistik adabiyotda ijtimoiy voqelikni tasvirlash an'anaviy usullardan farqli ravishda insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ongidagi ziddiyatlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ldi. Yozuvchilar jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni faqat tashqi hayot manzaralari orqali emas, balki insonlarning bir-biriga munosabati, fikrlash tarzi va kundalik xatti-harakatlari orqali ham yoritishga intildilar.

Ijtimoiy tengsizlik jamiyat a'zolarining iqtisodiy imkoniyatlari, ijtimoiy mavqei, ta'lim olish sharoitlari, madaniy tajribasi va jamiyatdagi ta'sir doirasi jihatidan bir xil imkoniyatlarga ega emasligini anglatadi. Ushbu tushuncha faqat boylik va kambag'allik o'rtasidagi farq bilan chegaralanmaydi. U insonlarning o'zaro munosabatlari, kundalik turmush tarzi, qadriyatlari va boshqa ijtimoiy qatlam vakillariga nisbatan munosabatida ham namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tabaqalanishni nazariy jihatdan o'rganishda Karl Marks, Maks Veber va Per Burde qarashlari muhim ahamiyatga ega. Marks jamiyatdagi sinfiy tafovutlarni ishlab chiqarish vositalariga egalik va iqtisodiy munosabatlar bilan bog'laydi. Veber esa ijtimoiy tabaqalanishni iqtisodiy mavqe bilan bir qatorda ijtimoiy maqom va hokimiyat munosabatlari orqali izohlaydi. Burde iqtisodiy kapitaldan tashqari madaniy va ramziy kapitalning ham ijtimoiy farqlarni saqlab qolishdagi rolini asoslaydi [2; 3; 4].

Mazkur nazariy qarashlar badiiy asarda ijtimoiy tengsizlikni tahlil qilish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Chunki adabiy matnda ijtimoiy mavqe faqat qahramonning moddiy imkoniyatlari bilan emas, balki uning yashash muhiti, nutqi, odatlari, estetik didi va boshqa insonlarga munosabati orqali ham namoyon bo'ladi.

Katherine Mansfield ijodi ushbu muammolarni o'rganish uchun alohida ahamiyatga ega. U XX asr modernistik hikoyachiligining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan yozuvchilardan biri bo'lib, o'z asarlarida inson ruhiyatining nozik jihatlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy mavqe, yolg'izlik va ma'naviy begonalashuv masalalarini yoritgan. Uning hikoyalarida tashqi voqealar ko'pincha qahramonlarning ichki dunyosini ochib beruvchi vosita vazifasini bajaradi.

"The Garden Party" hikoyasi Mansfield ijodida ijtimoiy tengsizlik masalasini o'rganish uchun muhim badiiy manba hisoblanadi. Asarda Sheridanlar oilasining farovon hayoti bilan ularga yaqin hududda yashovchi ishchilar oilasining turmush sharoiti qarama-qarshi qo'yiladi. Bir tomonda bog'dagi ziyofatga tayyorgarlik, gullar, musiqa, hashamat va kundalik qulayliklar tasvirlansa, ikkinchi tomonda oddiy mehnatkash oilaning qayg'usi va ijtimoiy himoyasizligi namoyon bo'ladi.

Hikoyaning markaziy qahramoni Laura Sheridan ana shu ikki ijtimoiy muhit o'rtasidagi ziddiyatni anglash jarayonida muhim o'rin egallaydi. Uning ishchining vafoti haqidagi xabarga munosabati, ziyofatni bekor qilish haqidagi taklifi va marhumning oilasiga tashrifi qahramonning ichki dunyosida yuz berayotgan o'zgarishlarni namoyon etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasiga e'tibor qaratilganda, Katherine Mansfield ijodi biografik, tarixiy-adabiy, psixologik, modernistik va ijtimoiy-tanqidiy yondashuvlar asosida tadqiq etilganini ko'rish mumkin. Sydney Janet Kaplan yozuvchining modernistik nasr shakllanishidagi o'rnini o'rgangan bo'lsa, Angela Smith uning hayoti va ijodiy faoliyatini tarixiy-adabiy kontekstda tahlil qilgan. Slaire Tomalin esa yozuvchining shaxsiy hayoti va ijodiy dunyoqarashi o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratgan [5; 6; 7].

"The Garden Party" hikoyasiga bevosita bag'ishlangan tadqiqotlar orasida Thomas Dayning "The Politiss of Voise in Katherine Mansfield's 'The Garden Party'" maqolasi alohida ahamiyatga ega. Unda hikoyadagi nutq, ijtimoiy mavqe va mafkuraviy munosabatlar Laura Sheridan obrazi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi [8; 128–141-b.]. Rebessa Thorndike-Breeze esa asardagi sinfiy tafovut, yaqinlik va begonalashuv masalalarini o'rganib, Laura va quyi tabaqa vakillari o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratadi [9; 68–81-b.]. Mazkur tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati katta bo'lsa-da, "The Garden Party" hikoyasida ijtimoiy tengsizlikning makon, obrazlar tizimi, ramziy detallar va qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqligini kompleks tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi Katherine Mansfieldning "The Garden Party" hikoyasida ijtimoiy tengsizlikning badiiy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, yuqori va quyi ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarning syujet, obrazlar tizimi, ramziy detallar va psixologik tasvir vositasida namoyon bo'lishini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish tushunchalarining nazariy asoslarini aniqlash; Mansfield ijodida ijtimoiy munosabatlarning badiiy ifodalanish xususiyatlarini o'rganish; Sheridanlar oilasi va ishchilar oilasi o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni qiyosiy tahlil qilish; Laura

Sheridan obrazining ruhiy o‘zgarishlarini psixologik jihatdan yoritish; bog‘, ziyofat, shlyapa va o‘lim motivining ramziy vazifalarini aniqlash.

Tadqiqot obekti Katherine Mansfieldning “The Garden Party” hikoyasi hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa hikoyada ijtimoiy tengsizlikning badiiy ifodalanishi, yuqori va quyi ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi munosabatlar, Laura Sheridan obrazining ruhiy rivojlanishi va ushbu jarayonlarni ifodalovchi poetik vositalardan iborat.

METHODS

Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, kontekstual, struktural, psixologik va germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-adabiy metod orqali Katherine Mansfield ijodining XX asr ingliz tilidagi modernistik nasr taraqqiyotidagi o‘rni hamda “The Garden Party” hikoyasining yaratilish davri bilan bog‘liq xususiyatlar o‘rganildi.

Qiyosiy-tipologik metod yordamida Sheridanlar oilasi va ishchilar oilasining turmush tarzi, iqtisodiy imkoniyatlari, ijtimoiy mavqei va qadriyatlar tizimi o‘zaro taqqoslandi. Bunda ikki ijtimoiy guruhning bir-biriga nisbatan munosabati hamda ular o‘rtasidagi ma’naviy masofa tahlil qilindi.

Psixologik metod Laura Sheridan obrazining ichki kechinmalari, oilaviy muhit ta’sirida shakllangan qarashlari va ishchining vafoti bilan bog‘liq voqeadan keyingi ruhiy o‘zgarishlarini o‘rganishga xizmat qildi.

Struktural metod orqali hikoyaning syujet va kompozitsion qurilishi, ijtimoiy konfliktning rivojlanishi hamda obrazlar o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi.

Germenevtik metod esa bog‘, ziyofat, shlyapa va o‘lim kabi obrazli detallarni asarning umumiy mazmuni bilan bog‘liq holda izohlash imkonini berdi. Ushbu metodlar birgalikda qo‘llanib, hikoyadagi ijtimoiy tengsizlikning mazmuniy va poetik xususiyatlarini yaxlit tahlil qilishga asos yaratdi.

RESULTS

Hikoyada ijtimoiy tabaqalanishning badiiy konflikt sifatida namoyon bo‘lishi

ijtimoiy tengsizlik asarning asosiy g‘oyaviy ziddiyatini shakllantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Mansfield bu muammoni bevosita ijtimoiy bayon yoki mualliflik hukmi orqali emas, balki ikki xil hayot tarzini qarama-qarshi qo‘yish orqali ochib beradi.

Sheridanlar oilasi farovonlik, moddiy imkoniyat va ijtimoiy mavqega ega qatlam vakili sifatida tasvirlanadi. Ularning uyi, bog‘i, xizmatkorlari, mehmon kutish imkoniyatlari va kundalik hayot tarzi oilaning jamiyatdagi mavqeini ko‘rsatadi. Ziyofatga tayyorgarlik jarayonida gullar keltirilishi, chodir o‘rnatilishi, taomlar tayyorlanishi va boshqa tashkiliy ishlarning bajarilishi ushbu oilaning moddiy imkoniyatlarini namoyon etadi.

Biroq yozuvchi ushbu farovonlikni faqat ijobiy estetik muhit sifatida tasvirlash bilan cheklanmaydi. Sheridanlar bog‘ining go‘zalligi va oilaning ko‘tarinki kayfiyati yaqin atrofda yashovchi ishchilar oilasining qayg‘uli hayoti bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Natijada o‘quvchi bir hududda yashovchi insonlarning hayotiy imkoniyatlari qanchalik farq qilishini anglay boshlaydi.

Hikoyadagi ishchi oilasi moddiy imkoniyatlari cheklangan, ijtimoiy mavqei past va hayotiy muammolar bilan yuzma-yuz kelayotgan qatlam vakillarini ifodalaydi. Yosh ishchining baxtsiz hodisa oqibatida vafot etishi ushbu oilaning hayotiga og‘ir zarba bo‘ladi. Biroq Sheridanlar oilasi uchun ayni paytda ziyofatga tayyorgarlik davom etmoqda. Ikki voqelikning bir vaqtda mavjudligi asardagi ijtimoiy kontrastni kuchaytiradi.

Bu qarama-qarshilikning asosiy xususiyati shundaki, Mansfield boy va kambag‘al oilalarni faqat moddiy sharoit jihatidan emas, balki hayotga munosabat va insoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ham qiyoslaydi. Sheridanlar oilasining a’zolari uchun ziyofat kundalik hayotning tabiiy qismi bo‘lsa, ishchi oilasi uchun o‘lim va yo‘qotish hayotning keskin o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Shu tariqa yozuvchi ijtimoiy tengsizlikning tashqi ko‘rinishidan uning ma’naviy va psixologik oqibatlariga o‘tadi. Ijtimoiy mavqe insonlarning moddiy imkoniyatlarini belgilash bilan birga, ularning boshqa kishilar hayotidagi voqealarga munosabatiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy makon oppozitsiyasini Sheridanlar bog‘i va ishchilar yashaydigan hudud sifatida makon tasvirini ijtimoiy tabaqalanishni ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Sheridanlar oilasining bog‘i va ishchilar yashaydigan hudud bir-biriga yaqin joylashgan bo‘lsa-da, ular turli ijtimoiy tajriba va hayot tarzini ifodalaydi.

Bog‘ Sheridanlar oilasining farovonligi, estetik didi va ijtimoiy mavqeini aks ettiradi. Undagi gullar, yashil maydon, chodir va ziyofatga tayyorgarlik jarayoni tartib, go‘zallik va osoyishtalik taassurotini yuzaga keltiradi. Ushbu makon oilaning o‘ziga xos ijtimoiy dunyosini ifodalaydi.

Ishchilar yashaydigan hudud esa Sheridanlar bog‘idagi go‘zallikdan keskin farq qiluvchi hayotiy muhitni namoyon etadi. Bu hududda yashovchi insonlarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan. Ularning kundalik hayoti mehnat, moddiy ehtiyoj va turmush tashvishlari bilan bog‘liq.

Makonlar o‘rtasidagi bu qarama-qarshilik oddiy geografik farq emas. U ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi chegaraning badiiy ifodasidir. Sheridanlar oilasi va ishchilar bir-biriga yaqin yashasa-da, ularning kundalik hayoti, imkoniyatlari va muammolari o‘zaro farqlanadi.

Rebessa Thorndike-Breeze hikoyadagi sinfiy munosabatlar va begonalashuv masalasini tahlil qilar ekan, ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi masofa faqat iqtisodiy farqlar bilan belgilanmasligini, u insoniy yaqinlik va o‘zaro munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [9; 68–81-b.].

Mansfield ushbu fikrni badiiy jihatdan makonlar qarama-qarshiligi orqali ifodalaydi. Sheridanlar bog‘i va ishchilar yashaydigan hudud o‘rtasidagi farq o‘quvchiga jamiyatning bir-biridan ajralgan ikki qatlamini ko‘rsatadi. Laura ana shu chegarani anglashga intilgan qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Laura Sheridan obrazining ruhiy kechinmalari va ijtimoiy qarashlaridagi o‘zgarishlar hikoyaning asosiy psixologik markazini tashkil etadi. Uning obrazi orqali Mansfield ijtimoiy muhit ta’sirida shakllangan qarashlar bilan shaxsiy insoniy tuyg‘ular o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Laura farovon oilada voyaga etgan bo‘lsa-da, atrofidagi insonlarga nisbatan samimiy va ta’sirchan munosabatda bo‘lishga intiladi. U bog‘da ishlayotgan ishchilar bilan muloqot qilganda ularning tabiiyligi va samimiyligini qadrlaydi. Bu holat uning oilasida shakllangan ijtimoiy qarashlardan ma’lum darajada farq qiladigan mustaqil munosabatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Laura uchun ishchilar shunchaki xizmat ko‘rsatuvchi kishilar emas. U ular bilan muloqot qilish orqali insoniy yaqinlikni his etadi. Biroq uning dunyoqarashi hali to‘liq shakllanmagan. U bir tomondan oilasining ijtimoiy muhitiga mansub bo‘lsa, ikkinchi tomondan boshqa ijtimoiy qatlam vakillarining hayotiga qiziqish bildiradi.

Ishchining vafoti haqidagi xabar Laura ruhiyatida keskin o‘zgarish yuzaga keltiradi. U oilasining ziyofatga tayyorgarlik ko‘rayotganini, ayni vaqtda boshqa bir oilaning qayg‘uga botganini o‘ylaydi. Qiz uchun bu ikki voqelikning bir vaqtda mavjudligi axloqiy ziddiyatni yuzaga keltiradi. Laura ziyofatni bekor qilish kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, qo‘shni oilaning boshiga tushgan musibatni hisobga olmasdan bayramni davom ettirish insoniylikka zid. Bu qaror uning ijtimoiy qarashlarida yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatadi.

Biroq Laura onasi Mrs Sheridan bilan qarama-qarshilikka duch keladi. Onasi ziyofatga tayyorgarlik ko‘rilganini, mehmonlar taklif etilganini va barcha ishlar rejalashtirilganini sabab qilib ko‘rsatadi. Uning munosabatida oilaning odatlari, ijtimoiy mavqei va tashqi obro‘sini saqlash istagi ustun turadi.

Bu vaziyatda ikki xil dunyoqarash to‘qnashadi. Laura insoniy hamdardlikni birinchi o‘ringa qo‘ysa, onasi mavjud ijtimoiy tartib va oilaviy manfaatlarni saqlashga intiladi. Mazkur ziddiyat hikoyaning asosiy psixologik konfliktini shakllantiradi.

Laura ruhiyatidagi o‘zgarishlarni oddiy achinish hissi sifatida baholash etarli emas. U o‘zining ijtimoiy muhitini, oilasining qadriyatlarini va boshqa insonlarning hayotiga munosabatini qayta anglash jarayonini boshdan kechiradi. Shu jihatdan qahramonning ichki kechinmalari individual axloqiy anglash va ijtimoiy ong o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi.

Ziyofat va shlyapa obrazlarining ramziy-semantik vazifasi ziyofat ijtimoiy mavqe va tashqi farovonlikning muhim ramzlaridan biridir. Sheridanlar oilasi uchun bog‘dagi ziyofat quvonch, estetik zavq va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash vositasi hisoblanadi. Ular uchun bu tadbir kundalik hayotning tabiiy davomidir.

Biroq ishchining vafoti haqidagi xabar ziyofatning mazmunini o‘zgartiradi. Endilikda u faqat bayram yoki ko‘ngilochar tadbir sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlarni ochib beruvchi badiiy detal sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomonda quvonch, ikkinchi tomonda qayg‘u mavjudligi asardagi asosiy ziddiyatni kuchaytiradi.

Shlyapa obrazi esa Laura xarakterini ochishda alohida ahamiyatga ega. Onasi unga chiroyli shlyapa sovg‘a qilganidan so‘ng, Laura tashqi ko‘rinishi va oilasining ijtimoiy mavqeini yana bir bor his qiladi. Shlyapa uning farovon muhitga mansubligini ifodalaydi.

Laura marhum ishchining uyiga borganda ham ushbu shlyapani kiyib boradi. Bu detal qahramonning avvalgi hayoti bilan yangi duch kelgan voqelik o‘rtasidagi ziddiyatni yanada kuchaytiradi. U bir tomondan Sheridanlar oilasining vakili, ikkinchi tomondan esa ishchi oilasining qayg‘usini tushunishga intilayotgan inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Shlyapaning ramziy mazmuni aynan shu qarama-qarshilikda shakllanadi. U faqat kiyim-kechak elementi emas, balki ijtimoiy maqom, tashqi ko‘rinish va ma’naviy anglash o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi. Per Burdening madaniy va ramziy kapital haqidagi qarashlari ushbu detalni izohlashda nazariy asos bo‘la oladi. Shlyapa orqali Laura mansub bo‘lgan ijtimoiy muhitning estetik va madaniy belgisi namoyon bo‘ladi. Biroq qahramonning ishchi oilasi bilan yuzma-yuz kelishi ushbu tashqi belgining ma’nosini qayta anglashga undaydi. Mansfield oddiy predmetga murakkab ijtimoiy va psixologik mazmun yuklaydi. Bu uning modernistik hikoyachilikka xos badiiy mahoratini ko‘rsatadi.

O‘lim motivi va insoniy hamdardlik muammosi yosh ishchining vafoti voqealar rivojini o‘zgartiruvchi asosiy hodisa hisoblanadi. Ushbu voqea Sheridanlar oilasining bayramona muhiti bilan ishchi oilasining qayg‘uli hayotini bir nuqtada to‘qnash keltiradi.

O'lim motivi asarda faqat inson hayotining tugashi sifatida emas, balki ijtimoiy tafovutlarni anglashga olib keluvchi badiiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Laura uchun marhumning hayoti va oilasining qayg'usi avvalgi tasavvurlaridan farqli ravishda chuqurroq ma'no kasb eta boshlaydi.

Uning marhumning uyiga tashrifi ikki xil ijtimoiy makon o'rtasidagi masofani qisqa muddatga bo'lsa-da, yaqinlashtiradi. Laura o'zining farovon oilaviy muhitidan chiqib, boshqa ijtimoiy qatlam vakillarining hayotiy tajribasi bilan yuzma-yuz keladi.

Bu tashrif qahramon uchun muhim ruhiy tajribaga aylanadi. U ishchining vafoti va uning oilasining qayg'usini ko'rish orqali inson hayotining moddiy mavqedan ustun turadigan jihatlarini his etadi. Shu bilan birga, Laura ushbu vaziyatni to'liq anglab etgan deb bo'lmaydi. Uning his-tuyg'ulari murakkab, fikrlari esa hali yakuniy xulosaga kelmagan.

Hikoyaning yakunida Laura akasi Laurie bilan suhbatlashadi. U boshidan kechirgan taassurotlarini aniq ifodalashga qiynaladi. Bu holat Mansfieldning ochiq yakun usulidan foydalanishini ko'rsatadi. Muallif qahramonning ruhiy o'zgarishiga tayyor xulosa bermaydi. Aksincha, o'quvchini Laura kechinmalarining mazmuni haqida mustaqil fikr yuritishga undaydi. Shu tariqa o'lim motivi hayot va o'lim, boylik va kambag'allik, insoniy yaqinlik va ijtimoiy begonalashuv o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi markaziy badiiy vositaga aylanadi.

DISSUSSION

Tahlil natijalari "The Garden Party" hikoyasida ijtimoiy tengsizlik bir nechta o'zaro bog'liq badiiy qatlamlar orqali ifodalanganini ko'rsatadi. Birinchi qatlam iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni qamrab oladi. Sheridanlar oilasining moddiy farovonligi va ishchi oilasining og'ir turmush sharoiti jamiyatdagi tabaqalanishning tashqi ko'rinishini namoyon etadi.

Ikkinchi qatlam ma'naviy va psixologik masofani ifodalaydi. Sheridanlar oilasi ishchi oilasining qayg'usini o'z hayotining tabiiy qismi sifatida qabul qilmaydi. Ularning kundalik hayoti boshqa ijtimoiy qatlam vakillarining muammolaridan nisbatan ajralgan. Bu holat ijtimoiy begonalashuvning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Uchinchi qatlam Laura Sheridan obrazining ruhiy rivojlanishi bilan bog'liq. Qahramonning ijtimoiy muhit ta'sirida shakllangan dastlabki qarashlari hayotiy voqelik bilan to'qnashadi. Ishchining vafoti uning insoniy hamdardlik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy munosabat haqidagi tasavvurlarini qayta ko'rib chiqishiga sabab bo'ladi.

Thomas Dayning tadqiqotida hikoyadagi ijtimoiy ovoz va mavqe munosabatlari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv Laura obrazining ijtimoiy qarashlarini o'rganishda muhimdir. Chunki qahramonning voqealarga munosabati uning o'z oilasidagi mavqei

va boshqa ijtimoiy qatlam vakillariga nisbatan shakllangan qarashlari bilan bog'liq [8; 128–141-b.].

Thorndike-Breeze tadqiqotida esa ijtimoiy sinf, yaqinlik va begonalashuv masalalari yoritilgan. Ushbu qarashlar hikoyadagi ikki makon o'rtasidagi farqni hamda Laura duch kelgan ruhiy ziddiyatni chuqurroq tushunishga yordam beradi [9; 68–81-b.].

Hikoyaning badiiy xususiyatlarini tahlil qilishda ramziy detallar ham muhim o'rin tutadi. Bog' va ziyofat farovonlik hamda ijtimoiy mavqeni ifodalasa, shlyapa Lauraning o'z ijtimoiy muhitiga mansubligini eslatib turadi. O'lim motivi esa ushbu farovonlik ortida mavjud bo'lgan ijtimoiy tafovutlarni ochib beradi.

Mazkur detallar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yaxlit ramziy tizim sifatida faoliyat yuritadi. Bog' va ziyofat tashqi farovonlikni, shlyapa ijtimoiy maqomni, ishchining o'limi esa insoniy hayotning umumiy va muqarrar mohiyatini ifodalaydi. Laura ushbu detallar orqali o'zining avvalgi dunyoqarashidan farqli bo'lgan hayotiy tajribaga duch keladi.

Mansfieldning badiiy mahorati shundaki, u ijtimoiy tengsizlikka oid tayyor hukmni o'quvchiga taqdim etmaydi. Yozuvchi voqealarni Laura idroki orqali tasvirlab, uning ruhiy o'zgarishlarini bosqichma-bosqich ochib boradi. Shu sababli o'quvchi ijtimoiy muammoni faqat tashqi kuzatuvchi sifatida emas, balki qahramonning ichki kechinmalari bilan birgalikda anglaydi.

Hikoyaning ochiq yakuni ham ushbu badiiy maqsadga xizmat qiladi. Laura o'z his-tuyg'ularini to'liq ifodalay olmaydi. Uning akasi Laurie bilan suhbati yakuniy xulosaga olib kelmaydi. Bu esa ijtimoiy tengsizlik va insoniy munosabatlar masalasi oddiy javob bilan hal etilmasligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, "The Garden Party" hikoyasida ijtimoiy tengsizlik iqtisodiy tafovut, makoniy qarama-qarshilik, ijtimoiy begonalashuv, psixologik ziddiyat va ramziy detallar orqali kompleks tarzda ifodalangan. Mansfieldning modernistik uslubi esa ushbu muammolarni qahramonning ichki dunyosi bilan bog'liq holda yoritish imkonini bergan.

CONCLUSION

Katherine Mansfieldning "The Garden Party" hikoyasini ijtimoiy tengsizlik nuqtayi nazaridan tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, hikoyada ijtimoiy tengsizlik faqat moddiy imkoniyatlar o'rtasidagi farq sifatida emas, balki insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tasvirlangan. Sheridanlar oilasining farovon hayoti va ishchi oilasining og'ir turmush sharoiti asarning asosiy ijtimoiy ziddiyatini tashkil etadi.

Ikkinchidan, Sheridanlar bog‘i va ishchilar yashaydigan hudud o‘rtasidagi makoniy qarama-qarshilik ijtimoiy tabaqalanishning badiiy ifodasiga aylangan. Ushbu ikki makonning yaqin joylashgani, biroq turli hayotiy sharoitlarni ifodalashi jamiyatdagi ma’naviy va ijtimoiy masofani yanada kuchaytiradi.

Uchinchidan, Laura Sheridan obrazi hikoyaning psixologik markazini tashkil etadi. Uning ishchining vafoti haqidagi xabarga munosabati, ziyofatni bekor qilish haqidagi taklifi va marhumning oilasiga tashrifi qahramonning ijtimoiy qarashlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni namoyon etadi. Laura ruhiyatidagi ziddiyat individual axloqiy anglash va oilaviy muhit ta’sirida shakllangan qadriyatlar o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi.

To‘rtinchidan, bog‘, ziyofat, shlyapa va o‘lim motivi hikoyaning ramziy-semantik tizimini shakllantiradi. Bog‘ va ziyofat ijtimoiy farovonlikni, shlyapa ijtimoiy maqomni, o‘lim motivi esa inson hayotining umumiy mohiyatini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu detallar orqali yozuvchi ijtimoiy tafovutlarning tashqi va ichki jihatlarini bir-biri bilan bog‘laydi.

Beshinchidan, Mansfieldning modernistik hikoyachilik uslubi ijtimoiy muammolarni qahramonning ichki dunyosi orqali yoritish imkonini beradi. Ichki kechinmalar, qisqa dialoglar, ramziy detallar va ochiq yakun asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi.

Umuman olganda, “The Garden Party” hikoyasi ijtimoiy tengsizlik, insoniy hamdardlik va shaxsning axloqiy anglash jarayonini o‘zaro bog‘liq holda aks ettirgan muhim modernistik asardir. Mansfield ijtimoiy tabaqalanishning insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sirini ochib berish orqali o‘quvchini jamiyatdagi farqlar, insoniy qadr-qimmat va ma’naviy mas’uliyat haqida mustaqil fikr yuritishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mansfield K. The Garden Party and Other Stories. – London: Sonstable & Sompany, 1922. – 288 p.
2. Marx K. Sapital: A Sritique of Politisal Esonomy. – Vol. 1. – London: Penguin Books, 1976.
3. Veber M. Esonomy and Sosiety: An Outline of Interpretive Sosiology. – Berkeley: University of Salifornia Press, 1978.
4. Bourdieu P. The Forms of Sapital // Handbook of Theory and Research for the Sosiology of Edusation / Ed. by J. G. Richardson. – Nev York: Greenvood Press, 1986. – P. 241–258.
5. B MARIFATKHON - EMERGENT: JOURNAL OF EDUSATIONAL, THE SLASh OF RELIGIOUS AND SESULAR VIEVS IN GRAHAM GREENE'S VORKS 2025.

6. Kaplan S. J. Katherine Mansfield and the Origins of Modernist Fistion. – Ithasa: Sornell University Press, 1991.

7. Smith A. Katherine Mansfield: A Literary Life. – Basingstoke: Palgrave Masmillan, 2000.

8. Tomalin S. Katherine Mansfield: A Sesret Life. – London: Viking, 1987.

9. Day T. The Politiss of Voise in Katherine Mansfield's "The Garden Party" // English: Journal of the English Assosiation. – 2011. – Vol. 60, No. 229. – P. 128–141. – DOI: https://doi.org/10.1093/english/efq033.

10. Thorndike-Breeze R. Feeling "Like a Vork-Girl": Slass, Intimasy and Alienation in "The Garden Party" // Katherine Mansfield and Psychology / Ed. by S. Hanson and G. Kimber. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2016. – P. 68–81. – DOI: https://doi.org/10.3366/edinburgh/9781474417532.003.0006.

11. Zivley S. L. Laura, Laurie, and Language in Mansfield's "Garden Party" // Journal of the Short Story in English. – 1995. – No. 25. – P. 71–77. – DOI: https://doi.org/10.3406/jsse.1995.1445.

12. Kimber G., Martin T. (eds.). Katherine Mansfield and The Garden Party and Other Stories. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2022.